

**MEXANIK SARIQLIK HOLATIDA O'T YO'LLARI TO'SILISHI
DARAJASIGA QARAB YUZAGA KELADIGAN GIPOKSIYA VA
HUJAYRAVIY DISFUNKSIYA MEXANIZMLARI**

Bekova Nodira Baxodirovna

Xudoyberganova Munavvar

Urganch davlat tibbiyot instituti

Tadqiqot dolzarbligi. Mexanik sariqlik klinik amaliyotda tez-tez uchraydigan va og'ir kechadigan patologik holat bo'lib, o't yo'llarining to'silish darajasi gepatotsitlardagi gipoksiya chuqurligi va hujayraviy metabolik disfunktsiyaning og'irligini belgilovchi asosiy omildir. Obturatsiyaning erta aniqlanmasligi safro kislotalarining toksik ta'sirini kuchaytiradi, oksidativ stressni faollashtiradi va ko'p a'zoli yetishmovchilik rivojlanish xavfini oshiradi. Shu bois to'silish darajasiga ko'ra gipoksiya va hujayraviy shikastlanish mexanizmlarini chuqur o'rganish mexanik sariqlikning og'ir klinik oqibatlarini kamaytirishda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. O't yo'llari to'silish darajasiga qarab mexanik sariqlikda yuzaga keladigan gipoksiya va hujayraviy disfunktsiya mexanizmlarini tahlil qilish.

Asosiy mazmun. O't yo'llarining qisman to'silishi gepatotsitlarda yengil gipoksiya bilan kechib, oksidativ fosforillanish jarayonlarining susayishi, ATP miqdorining kamayishi va mitoxondrial membrana barqarorligining pasayishi bilan tavsiflanadi. Safro bosimining ortishi natijasida xolangiotsitlar va periportal hujayralarda metabolik buzilishlar rivojlanadi. To'liq obturatsiya sharoitida esa kislorod yetishmovchiligi keskin kuchayib, mitoxondrial nafas olish zanjirining kompleks I va III faoliyati izdan chiqadi, reaktiv kislorod turlari (ROS) miqdori ortadi va lipoperoksidatsiya kuchayadi. Bu jarayon hujayra membranasining destabilizatsiyasi, ionlar almashinuvi buzilishi, sitokrom C ning sitozolga chiqishi va apoptoz hamda nekroz mexanizmlarining faollashuviga olib keladi. Uzoq davom etgan obturatsiya sinusoidal qon oqimi buzilishi, endotelial disfunktsiya va hujayraviy energiya tanqisligi bilan kuzatiladigan terminal gipoksiya bosqichini shakllantiradi. Natijada fibroz, yallig'lanish faollashuvi va organlararo metabolik buzilishlar yuzaga keladi.

Xulosa. Mexanik sariqlikda o't yo'llarining to'silish darajasi gipoksiya chuqurligi va hujayraviy disfunktsiya og'irligini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Qisman

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-2, ISSUE-10**

obturatsiya metabolik jarayonlarning sekinlashuvi bilan kechsa, to'liq obturatsiya chuqur mitoxondrial disfunktsiya, oksidativ stress, apoptoz va nekroz jarayonlarining kuchayishi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlarni o'rganish mexanik sariqlikning og'ir asoratlarini erta aniqlash va samarali davolash strategiyalarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Chen H.L., Chang C.J., Yu C.H. Jaundice revisited: recent advances in the diagnosis and treatment of hepatobiliary diseases // *Biomedical Journal*. – 2018. – Vol. 41, No. 3. – P. 113–124.
2. Алимова М. М. и др. Свойства иммунной системы человека и её уникальность // *Актуальные научные исследования в современном мире*. – 2017. – №. 5-3. – С. 106-108.
3. Khurbanova N. et al. The state of antioxidant system of mitochondrial fraction of the hepatocyte in early terms of ischemic stroke in white rats // *Интернаука*. – 2017. – №. 12-2. – С. 51-53.
4. Rixsiev Z.G. Mexanik sariqlik. Postxolelitsistektomik sindrom // Toshkent Tibbiyot Akademiyasi. — Elektron o'quv resursi. – 2020. – Rejim dostupa: surgery.medped.tma.uz.